

"SHUM BOLA" ASARIDAGI OBRAZLAR TAHLILI

Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna

Termiz davlat universiteti akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Abstract: *Ushbu maqolada bolalar badiiy adabiyotida obrazlarning milliy ma'naviy ruhiyati va tabiati, milliy tafakkur talqini ifodalangan bo'lib, unda G'afur G'ulomning "Shum bola" asari misolida badiiy obrazlarning xarakter xususiyatlari tahlil qilinadi va milliy ruhiyatni aks ettiruvchi jihatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyotida badiiy obrazlar, xarakter xususiyatlari, milliy ruhiyat, qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki dunyosi, tuyg'u, obrazlarning psixologik tahlili.*

G'afur G'ulom o'zining serqirra ijod namunalari, nodir asarlari, sermazmun she'riy satrlari bilan nafaqat o'zbek xalqi, balki butun dunyo xalqlari qalbidan joy ola bilgan noyob qalam ustasidir. Uning barcha ijod namunalari kitobxon uchun o'ta qadrlil va yuksak ma'naviy-ma'rifiy ruhiyatga ega asarlardir. G'afur G'ulomning mashhurligiga sabab bo'lgan asarlar to'plami anchaginani tashkil etsada, lekin uning ijodida "Shum bola" qissasi alohida o'rin egallaydi. Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, G'afur G'ulom yoshligi ayni 1-jahon urushi yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham uning ijodida urushning qalbimizdan o'chira olmaydigan salbiy oqibatlari o'z aksini topgan. "Shum bola" asari ham bundan mustasno emas. Bu asarni har qanday sharoitda ham, har qanday davrda ham o'qish orqali inson yoshlikdagi xotiralar ummoniga sho'ng'ib ketadiyu, barcha hayot tashvishlarini ma'lum muddatga bo'lsa-da butunlay unuta oladi.

"Shum bola" qahratonda qulf urib gullagan bodom, Cho'lpon iborasi bilan aytganda, qor qo'ynidagi lola yanglig' kishini hayratga soladi". Qissa qahramoni asl ismi pinhon tutilgan Shum bola, 14-15 yoshli o'smir yigitdir. U yarim yillik sarguzashti davomida hayotning barcha jabhalarini, undagi ikir-chikirlargacha

ko'zdan kechiradi. Agar yerda zulm ko'paysa, ijodkor mavzu va makonni o'sha yerdan olisga ko'chiradi, qahramonlarini sarguzashtga chorlaydi yohud voqeahodisalarni arshi a'loga ko'chiradi. G'afur G'ulom qahramoni sarguzashtga chiqadi. Muallif o'z badiiy niyatini sarguzasht davomida anglatib boradi. Qissadagi real voqeliklar g'ayrishiuriy tarzda aks ettiriladi. Ruhiyat birinchi o'ringa olib chiqilib, aql ikkinchi darajali qurolga aylanadi. Agar Shum bola aql egasi sifatida gavdalantirilganda bu kabi erkinliklarga ega bo'lmasdi va asar ham hozirgidek mavqe qozonolmasdi. Muallif buni anglagan holda o'z qahramoniga katta ruhiy erkinlik beradi. Badiiy asarda ruhiy erkinlikni ta'minlash esa badiiylikning muhim asosi sanaladi. Biz tadqiq etayotgan qissada ruhiy kechinma va tuyg'u bolada rivojlangan bo'lib, uni shakllantirish, butun boshli mafkuraga qarshi qo'yish, aql bilan tizginni boshqarish yozuvchining o'zida qolgan. Muallif va qahramon o'rtasidagi aqliy va ruhiy asoslar uyg'unlashib asar badiiy qimmatini ta'minlagan. Shum bolaning o'smir yoshda bo'lishi diqqatga sazovor. Yosh davrlari psixologiyasiga ko'ra, u o'tish davrini boshdan kechirayotgan, rivojlanayotgan o'smirdir. Bu davrda o'smirning "men"i qaytadan shakllanadi. Uning atrofida gilari, ayniqsa, o'z-o'ziga munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. Psixologlar o'rtasida yoshni davrlashtirishda tafovutlar bor, lekin barcha psixologlarning tasnifiga ko'ra ham Shum bola o'smirdir.

Psixolog D. I. Feldshteynning fikricha, shaxs shakllanishi jarayonida ikkita katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tadi. Bu "Men jamiyat ichida" va "Men va jamiyat", degan ayriha havas bilan qaraydi, uzoq -uzoqlarga ketib qolgisi keladi. U dunyo qidirib, baxt izlab yurganligi jihatidan Shum bola va uning o'rtoqlari taqdiriga taqdiri tutashligiga, mehr-muruvvatga tashna ekanligiga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Shum bolani ko'rganida quchog'iga otilib, hol-ahvol so'rashi shundan desak yanglishmagan bo'lamiz. Shum bola bilan Ko'kterak bozoriga qo'ylarni haydab ketayotgan Omon avj pardalarda mungli kuylayotgan o'rtog'iga qarata: "Ayt, uka! Ancha vaqtdan buyon shunaqa bir rohat, tanish ovoz eshitganim yo'q",-deydi. Xuddi ana shu holatda Omonning ruhiy to'lqinlari yorqinroq ifodasini topgan. Bu o'spirinning dil

torlaridan silqiyotgan dardli iztiroblar, sog'inch tuyg'ulari Shum bolaning qo'shig'i ohanglariga qo'shilib kitobxon qalbiga ko'chsa, bu ikki taqdirni ruhan birlashtirib yuborsa ajab emas. Zero, sodir bo'layotgan voqealar qahramonlar taqdirida bejiz ketmaydi. Vaqt o'tib yoshi ulg'aygan sari Shum bola ham tobora ko'proq oila tashvishi, beva onasi va singillarini o'ylaydigan, ularga yordam berish burchi bilan ruhan qiynaladigan bo'lib qoladi: "Onam sho'rlikning beva kambag'al ro'zg'origa jodiday jag' bilan borishim o'zimga ham o'ng'aysiz, ularning ham menga ko'zlari uchib turmagan bo'lsa kerak... Beva onamni, yetimcha singillarimni ko'p o'ylayman, ichim achishadi. Nega men bunday noshud bola bo'ldim, kimga bo'lsa ham shogirdmi, yugurdakmi bo'lish kerak, biror nima topib onamga qarashib yuborishim kerakku, deyman, O'kinaman, o'z-o'zimni koyiyman, ba'zan-ba'zan yig'lab qo'yaman. Ammo shu holda uyga qaytish qiyin." Asardagi qahramonlarning ko'proq turmushga intilishini tabiiy insoniy xislat deb baholash lozim. Shunga ko'ra Omonni "boylik orttirish tashvishidagi nazari past, ma'naviy 'qashshoq obraz" deb o'ylashimcha biryoqlamalik bo'lar edi. Uning xarakterida ayrim hollarda kuzatilgan Shum boladan o'ch olishga intilish esa, bolalarcha kek saqlashdan kelib chiqqan o'jarlikdan boshqa narsa emasdi. Bolalarning birida oriyat ustunlik qilgan paytda, ikkinchisi esa sal murosaga kelishni istamaydi. Mana shunga o'xshash o'spirinlarcha o'jarlikning o'zi xarakterlarning ishonchli chiqishini ta'minlagan omildir. "Shum bola" qissasini yorqinroq ko'rish uchun taqdirleri bir-biriga tutash bo'lgan yetim bolalar o'rtasidan ziddiyat qidirishda hech qanday mantiq ko'rinmaydi. Asarda tasvirlangan ijtimoiy muammolarni anglamoq uchun jahon urushini boshlab, xalqni nochor ahvolda qoldirgan va bundan manfaatdor kishilarga xos g'ayri insoniy jihatlardan tamomila farqlanuvchi moddiy muhtojlikdan, kundalik vahimalardan asabiylashgan oddiy, samimiy insonlarga xos jihatlarning bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishidan izlash foydaliroq bo'lardi. Murakkab vaziyatlarda ham sof insoniy qiyofalarini yo'qotmagan kishilarning ruhiy to'lqinlarini tushunmoq G'afur G'ulom ko'zlagan maqsadlarni anglashga yordam beradi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ma'noli, mazmunli hayotni qo'msagan, taqdirini endilikda

qorin to'qligiyu xotirjam kun o'tkazishgagina bog'lab tasavvur qila olmaydigan Shum bola qalbining tongday tiniqligi, o'zini qushday yengil his etayotganligi, ko'kragini to'ldirib nafas olishi kabi ramziylik bilan qissaning yakunlanishi zinhor bejiz emas. Bu G'afur G'ulomga xos inson taqdirining qo'l bilan yaratilishi haqidagi ijodiy-estetik ideallarga borib taqaladi. "Shum bola" qissaning aksariyat qahramonlari ojiz bir banda sifatida taqdir sinovlari oldida betadbir qoladilar. Bunday o'rinlarda inson ojizligiyu iymon qudrati namoyon bo'lgandek tuyuladi. Alohida olingan kishilar va olomon ruhiyati tasvirlangan o'rinlarda bu hol yaqqolroq ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'. G'ulom. Tanlangan asarlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 10-jild. Tarjimalar.
3. G'afur G'ulom. Shum bola qissasi. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. –T.: Fan, 1966 –B. 50
5. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 6 tom. –T.: Fan, 1986